

## **BUYUK SHOIR BERDAQ SIYMODAN QOLGAN ILMIIY MEROS**

*Kalbayeva Arukhan Jengisbaevna*

*Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Pediatriya va xalq tabobati*

*fakulteti 4-kurs 433-guruh talabasi*

*Email: [kalbayevaaruxan@gmail.com](mailto:kalbayevaaruxan@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Berdaq adabiyotimizda o'zining takrorlanmas xalqona she'riyati bilan ajralib turadigan shoirlar safidagi ijodkor. Berdaqning she'rlaridagi matni soddaligi va xalq dardi asosida yozilganligi bilan muhim jihatlari bilan ajralib turadi. shoir hayotidagi qiyinchiliklarga qaramay buyuk siymo bo'lganligi hozirgi kun talaba yoshlariga o'rnak oladigan tafaflari bor. Berdaq she'riyatida vatanga sadoqat, mehnatkash xalqning dardi, insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat kabi insoniy g'oyalarni qamrab olgan.*

***Аннотация:** Бердак – один из поэтов, выделяющихся в нашей литературе своей уникальной народной поэзией. Текст стихов Бердака отличается своей простотой и тем, что написан на основе стихотворения. Тот факт, что поэт был великим деятелем, несмотря на трудности в его жизни, есть несколько примеров, которые могут служить примером для сегодняшних студентов. Поэзия Бердака охватывает такие человеческие идеи, как верность Родине, боль трудолюбивого народа, взаимное уважение между людьми.*

***Abstract:** Berdak is one of the poets who stand out in our literature with his unique folk poetry. The text of Berdaq's poems is distinguished by its simplicity and the fact that it is written on the basis of the poem. the fact that the poet was a great figure despite the difficulties in his life, there are some examples that can serve as an example for today's students. Berdak's poetry covers human ideas such as loyalty to the motherland, the pain of the hardworking people, and mutual respect between*

people.

**Kalit soʻzlar:** *komil inson, ijodiyot, vatanparvarlik, adolat, hurmat, axloq, adolatli shoh, xalq dardi, mehnatkash xalq.*

**Ключевые слова:** *совершенный человек, творчество, патриотизм, справедливость, уважение, мораль, справедливый король, боль народа, трудолюбивый народ.*

**Keywords:** *perfect man, creativity, patriotism, justice, respect, morality, just king, people's grief, hardworking people.*

Men ishonaman, biz bu tarixiy yoʻlni munosib davom ettirishga har tomonlama qodirmiz. Bugungi kunda dunyo xaritasida tutgan oʻrnimiz, oʻz oldimizga qoʻyayotgan juda ulkan maqsad va marralarimiz ham aynan shuni taqozo etmoqda.

**Sh.Mirziyoyev.**

Eshonlarda muruvvat yoʻq,  
Biyda insof - adolat yoʻq,  
Boyda hayr - sahovat yoʻq,  
Insofga hech kim kirgan emas.  
Bu zamon kun-kundan battar,  
Har kimga oʻz gʻami yetar-  
Qora tuman qachon ketar  
Chiroq porlab yongan emas.

**[Xalq uchun {Matn}: sheʼrlar]**

Berdaq –Toshkent: Ijod-print, 2021. -84-b.] Yuqoridagi misralar orqali Berdaq oʻzi yashagan XVIII- XIX asrlardagi qoraqalpoq xalqi va boshqa unga qardosh boʻlgan xalqlarning hayotidagi qiyinchiliklarini, yashash sharoitini, boylarning,

amaldorlarning faqat o'zini o'ylashini, ta'magir ruhoniy va eshonlarda insof yo'qligini yoritib bermoqchi bo'ladi.

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li 1827-yili Orol dengizi janubidagi Oqqala ovulida kambag'al baliqchi oilasida dunyoga kelgan. U hozirgi Mo'ynoq tumaniga to'g'ri keladi. Uning adabi taxallusi Berdaq. Otasi kambag'al baliqchi bo'lib, unga Berdaq laqabini bergan. Berdimurodning otasi Qarg'aboy ham, bobosi Bo'ronboy ham kishilar eshigida ishlab kun o'tkazishgan. O'n yoshida ota-onasidan ajralib, yetim qolgan bo'lajak shoir amakisi Nayzaboyning uyida yashaydi. Amakisining mollarini boqadi. Amakisining xotini qahri qattiq ayollardan bo'lib, Berdaqni yetim deb haqoratlab, kamsitadi. O'zining uyidan haydab yuboradi.

Berdag 10 yoshidan ovul maktabiga boradi. Maktabni bitirganidan so'ng o'sha davrda yirik ilm maskanlaridan hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida tahsil olgan. Keyinchalik moddiy muhtojlik tufayli o'qishni tashlab ketishga majbur bo'ladi. "So'ngra u madrasa emas, hayot ta'limini ola boshlaydi. U goh baxshilik, goh dehqonchilik, goh uy ro'zg'or, goh baliqchilik kabi ishlar bilan shug'ullanadi" [Mirtemir. Ikki og'iz so'z ...//Berdaq. Saylanma (She'rlar va doston). –Toshkent/ G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 5-bet].

U yoshligidan dutor chalishni o'rganib, xalq qo'shiqlarini kuylab yuradi. Rivoyat qilishlaricha, 12 yoshidayoq to'y boshlovchi baxshini yengib, "To'y boshlar" ashulasini aytish huquqini qo'lga kiritadi. 18-19 yoshlaridan o'zi ham she'r to'qiy boshlaydi. 25 yoshlarida Berdaq o'z she'rlari bilan xalq ichida tanilgan xalqparvar shoir bo'ladi. Xalq qo'shiqlari, turli afsonalar, maqollar va matallar shoir ijodining yuksalishida poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Uning muhtamlari Aristotel, Platon, Navoiy, Fuzuliy, Firdavsiy, Bedil, Mahtumquli, Kunxo'ja, Ajiniyoz. Berdaq bu mutafakkirlarning asarlarinichuqur o'rgangan. "Izlar edim" she'rida u muhtamlarini eslab o'tadi.

Navoiydan savod ochdim,

Fuzuliydan durlar sochdim.

Mahtumquli o'qiganda,

Aytar edim har zamonda:

“Biror qusur bormi unda?”

So‘zin tavof qilar edim.

O‘tdi Arastu, Aflotun,

Ilm olamin yaratdi chin.

Olib qo‘lga Bedil, Attor,

Tong ottirdim qilib takror.

Ularning qanday inson bo‘lganliklariga urg‘u beradi. Berdaqning she‘rlaridagi har bir misralar nimadir haqida so‘zlayotganga o‘xshaydi. Berdaq tarixni va xalq o‘g‘zaki ijodini yaxshi bilgan.

Berdaqning lirik she‘rlari va dostonlari qoraqalpoq xalqining XVIII- XIX asrlardagi ijtimoiy hayotini yoritib bergan. Asarlarida teng huquqlilik, insoniylik, adolat, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, xalq uchun yashash, hurmat, mehr-shafqat haqida avj pardalarda kuylaydi. Berdaqning ijodiy merosi faqat qoraqalpoq xalqinigina emas, balki yer yuzidagi insonlarning qayg‘u - alamlari haqida so‘zlaydi. U o‘z hayollarida xalqning tashvishi, ularning baxtli kelajagi haqida kim qayg‘urishini ko‘p o‘ylaydi. Ba‘zan adolatli podshohhaqida xayol surardi. Ammo bu fikrni o‘zi keyin rad etadi:

Shafqatni bilmagan jallod dushmanlar,

El-yurtin yig‘latgan otaliq-xonlar,

Boshga og‘ir qayg‘u solgan zolimlar,

Ko‘zlarimga ilon- chayon ko‘rindi.

Adolat yo‘q begu podshoyu xonda,

Shodlik bo‘lmas sira g‘arib insonda,

Biz yashagan bu bevafo zamonda,

Har biri ko‘zimga yolg‘on ko‘rindi.

“Ko‘rindi” she‘ri orqali xalqqa zulm qilayotgan xonlarni ilon, chayonlarga o‘xshatadi. Berdaq xalq dardini o‘ylab, juda ko‘p asarlar yaratgan. Berdaq asarlari davr hayotining haqqoniy badiiy ifodasidir. Berdaqning shunday she‘rlari borki, ular barcha zamonlar haqida gapiradi va hech qachon qiymatini yo‘qotmaydi. “Xalq uchun”, “Kerak”, “Umrin”, “Bilmadim”, “Madad ber”, “Bulbul” kabi she‘rlar.

“Bo‘lgan emas”, “Soliq”, “Bu yil”, “Umrin” va boshqa she‘rlarida mehnatkash xalqning o‘g‘ir hayotidan qayg‘uradi. Tarixiy mavzudagi “Omongeldi, “Oydo‘sbobo”, “Ernazarbiy” dostonlarida qahramonlik va vatanparvarlik g‘oyalari tarannum etiladi. Xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. “Panoh ber” she‘rida xalqqa yordam berishga Xudoni chaqiradi va unga nola qiladi. “Kerak” she‘rida esa xalqqa odil podshoh kerakligiga urg‘u beradi. “Yaxshiroq”, “Shekilli” she‘rlarida ba‘zi ta‘magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etadi. Ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni, ota- onani sevishga chaqiradi “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma” she‘rlarida. Berdaqning “Umrin” she‘ri o‘z haqida hikoya qiladi. Bu she‘rida u to tug‘ilganidan boshlab umrining oxiriga qadar o‘tgan hayotini yilma - yil ko‘rsatib beradi:

Oylar o‘tdi, yillar o‘tdi,  
Go‘daklik davlatim ketdi,  
To‘rt va besh, oltiga yetdi,  
Yoshlik davrini surgil, umrim.  
O‘tgach yigirma uch yilga,  
Kuch va quvvat to‘ldi belga,  
Xizmat qildim elu yurtga,  
Kuchga to‘lishgan kunlarim.

Berdag xalqning o‘z baxti va ozodligi uchun kurashi adolatli kurash ekaniga qattiq ishonadi. O‘z she‘rlari va asarlarida orzu qilgan, tasvirlagan baxtli zamonlar kelishiga umid qiladi.

Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq 1900-yilda 73 yoshida vafot etgan. Qoraqalpoq shoiri Otash Berdaq vafot etganida uni qoraqalpoqlargina emas, balki o‘zbeklar, qozoqlar, tatarlar va ruslar ham birgalikda oxirgi yo‘lga kuzatganini aytadi. Demak, bu ma‘lumotlarning o‘ziyoq Berdaqni buyuk shoir va shaxs bo‘lganligini anglatadi. Berdaqning qabri Qoraqalpog‘istonning Chimboy tumanidagi “Qoraqum eshon” qabristonida. Berdaq xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1998- yil uning 170 yillik yubileyi keng miqyosda nishonlandi. Nukus shahrida Berdaq nomidagi muzey tashkil etildi. Qoraqalpog‘istonga, Toshkent

shahridagi Adiblar xiyoboniga Berdaq haykali o'rnatilgan. Qoraqalpog'istondagi ko'pgina maktablar, ko'chalar, kinoteatrlar, kutubxonalar shoirning nomiga qo'yilgan.

Berdaq haqida qancha ko'p gapirsak shuncha oz. U adabiyotda o'zining takrorlanmas she'riyati bilan ajralib turadi. Uning she'rlari matnining soddaligi, o'quvchiga tushunarligi bilan ajralib turadi. Berdaq she'rlari tarjimasi o'zbek tili imkoniyatining cheksizligidan dalolat beradi. O'zbek tilining imkoniyatlaridan Mirtemir mahorat bilan foydalanib, o'quvchiga oson tushunturib bera olgan.

Berdaq asarlarida aks etgan ijtimoiy muammolar hozirgi kunimiz bilan ham bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. Berdaq o'tmish, bugun va kelajakning takrorlanmas mahoratli shoiridir. Berdaq haqida ma'lumotlar oz saqlanib qolgan bo'lsa-da, uning barcha qo'lyozmalarida o'zi haqidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Berdaq asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va uni o'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasida keng targ'ib qilish kerak. Berdaq o'zining she'riyati orqali yoshlarga juda ko'p nasihatlar bergan. Berdaq hayotini yoshlarga o'rnak sifatida kinofilm qilib ishlasak maqsadga muvofiq bo'lardi. Ijodkor hayotidagi qiyinchiliklarga qaramay, buyuk shaxs bo'lganligi hozirgi kun yoshlariga o'rnak bo'lsa arziydi. U butun umr xalq dardi bilan yashadi. Berdaq qoraqalpoq xalqining asl farzandidir.

Xulosamiz o'rnida men bu ijodkorni hayot yo'lini o'qir ekanmiz, har bir inson o'zida bor narsani qadriga yetishi, umr qisqa diydor g'animat ekanligini, ota-onani, vatanni ardoqlab yashashni va har birimiz o'zimizda bor imkoniyatdan to'g'ri foydalana olishimiz kerakligini anglamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **(LIST OF REFERENCES)**

1. Xalq uchun {Matn}: she'rlar. Berdaq –Toshkent: Ijod-print, 2021.172-b
2. Mirtemir. Ikki og'iz so'z ...//Berdaq. Saylanma (She'rlar va doston). – Toshkent/ G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. 184- bet.
3. Berdaq She'riyatidan, 1983. 96-bet

4. Berdaq. Tanlangan asarlar. T., 1987. 42-b.
5. И.Сагитов. Бердахтын творчествосты. Нукус. 1977.
6. Бердах. Танламалы шыгармалар жыгынагы. Нукус. 1977. 99-b.
7. Из философского наследия народов Востока. Изд. «Фан» Уз.Ташкент. 1982.
8. “Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,
9. Давкараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы?. Т., 1959.
10. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
11. Tojiboyev A. Sir qo‘shiq-lari. T. 1970.
12. Berdaq. Tanlangan asarlar. T. 1978.
13. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. T., 1978.
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
16. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
17. <https://www.president.uz/oz/lists/view/6917>
18. <http://www.berdaq.com>
19. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)